O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

"TASDIQLAYMAN"
Rektor O.Sh.Bazarov
2022 yil

# BYUDJET HISOBOTI

## FANINING O'QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 400 000 – Biznes, boshqaruv va huquq |
| **Ta'lim sohasi:** | 410 000 – Biznes va boshqaruv |
| **Magistratura mutaxassisliklari:** | 70410102-Audit (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) |
| | 70410101 - Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) |

**Qarshi- 2022**



Сканировано с CamScanner

**70410102-AUDIT (TARMOQLAR VA SOHALAR BO'YICHA) MUTAXASSISLIGI UCHUN**

| Fan/modul kodi | O'quv yili | Semestr | ECTS - Kreditlar | |
|---|---|---|---|---|
| 336 INTA 1 8 1.05 | 2022-2023 | 2 | 4 | |
| Fan/modul turi | Ta'lim tili O'zbek/rus | | Haftadagi dars soatlari | |
| Majburiy fanlar | O'zbek | | 4 | |
| Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | | Mustaqil ta'lim (soat | Jami yuklama (soat) |
| Byudjet hisoboti | 60 | | 60 | 120 |

2

## I. Fanning mazmuni

**Fanni o'qitishdan maqsad** – talabalarda byudjet hisobotlarini tuzishning uslubiy jihatlari yuzasidan bilimlarini chuqurlashtirish, fanni nazariy va amaliy jihatdan o'rganish hamda mazkur fan bo'yicha mustahkam bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.

**Fanning vazifasi** – uni o'rganuvchilarga byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning moliyaviy hisobotlari, Davlat byudjeti va Davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari ijrosi bo'yicha hisobotlarni tuzish, ko'rib chiqish hamda tasdiqlash tartibi hamda byudjet hisobotlarini tuzish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni uzviylik va uzluksizlikda o'rgatishdan iborat.

## II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

### II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

**1-Mavzu. "Byudjet hisoboti" fanining predmeti va metodi**

"Byudjet hisoboti" fanining predmeti va obyektlari. Byudjet hisobotlarining tarkibi, ularni tuzishning maqsadi hamda xususiyatlari. Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning moliyaviy hisobotlarni tuzishning meyoriy-uslubiy asoslari. Byudjet tizimi byudjetlarini ijrosiga oid hisobotlarni tuzishning meyoriy-uslubiy asoslari. Byudjet hisobotlarini tuzishda qo'llaniladigan axborot tizimlari tarkibi.

**2-Mavzu. Byudjet tashkilotlari buxgalteriya balansi.** Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya balansini tuzilishi, ko'rsatkichlarni shakllantirish ularni tegishli hisob registrlari va hujjatlar bilan o'zaro muvofiqligi. Byudjet tashkilotlari balansini tasdiqlash hamda taqdim etish tartibi. Byudjet tashkilotlari balansining axborot imkoniyatlari. Byudjet tashkilotlari balansini tuzishning axborot tizimlari va ulardan foydalanish.

**3-Mavzu. Byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetalari ijrosi to'g'risidagi hisobot.**

Byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetalari ijrosi to'g'risidagi hisobotni tuzishning maqsadi va xususiyatlari. Byudjet tashkilotlarida xarajatlar smetalari ijrosi to'g'risidagi hisobotining tuzilishi, ko'rsatkichlarni shakllantirish ularni tegishli hisob registrlari va hujjatlar bilan o'zaro muvofiqligi. Byudjet tashkilotlari xarajatlar smetalari ijrosi to'g'risidagi hisobotni tasdiqlash hamda taqdim etish tartibi. Byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetalari ijrosi to'g'risidagi hisobotning axborot imkoniyatlari.

Сканировано с CamScanner

**4-Mavzu. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotlar**

Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotlarni tuzishningmaqsadi va xususiyatlari. Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi bo'yicha pul mablag'lari harakati to'g'risida hisobotlarni tuzish va ularni tegishli hisob registrlari va hujjatlar bilan o'zaro muvofiqligi. Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi bo'yicha pul mablag'lari harakati to'g'risida hisobotlarni tuzish va ularni tegishli hisob registrlari va hujjatlar bilan o'zaro muvofiqligi. Ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag'lar harakati to'g'risida hisobotlarni tuzish va ularni tegishli hisob registrlari va hujjatlar bilan o'zaro muvofiqligi.Boshqa byudjetdan tashqari mablag'lar harakati bo'yicha hisobotlarni tuzish va ularni tegishli hisob registrlari va hujjatlar bilan o'zaro muvofiqligi. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotlarning axborot imkoniyatlari.

**5-Mavzu. Byudjet tashkilotlarida nomoliyaviy aktivlar harakati to'g'risidagi hisobot**

Byudjet tashkilotlarida nomoliyaviy aktivlar harakati to'g'risidagi hisobotni tuzishning maqsadi va xususiyatlari. Byudjet tashkilotlarining nomoliyaviy aktivlar harakati to'g'risidagi hisobotining tuzilishi, ko'rsatkichlarni shakllantirish ularni tegishli hisob registrlari va hujjatlar bilan o'zaro muvofiqligi. Byudjet tashkilotlarining nomoliyaviy aktivlar harakati to'g'risidagi hisobotini tasdiqlash hamda taqdim etish tartibi. Byudjet tashkilotlarining nomoliyaviy aktivlar harakati to'g'risidagi hisobotining axborot imkoniyatlari.

**6-Mavzu. Byudjet tashkilotlarining debitorlik va kreditorlik majburiyatlari to'g'risidagi hisoboti.**

Byudjet tashkilotlarining debitorlik va kreditorlik majburiyatlari to'g'risidagi hisobotni tuzishning maqsadi va xususiyatlari. Byudjet tashkilotlarining debitorlik va kreditorlik majburiyatlari to'g'risidagi hisobotining tuzilishi, ko'rsatkichlarni shakllantirish ularni tegishli hisob registrlari va hujjatlar bilan o'zaro muvofiqligi. Byudjet tashkilotlarining debitorlik va kreditorlik majburiyatlari to'g'risidagi hisobotnitasdiqlash hamda taqdim etish tartibi.Byudjet tashkilotlarining debitorlik va kreditorlik majburiyatlari to'g'risidagi hisobotning axborot imkoniyatlari.

**7-Mavzu. Byudjet tashkilotlarining moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisoboti.**

Byudjet tashkilotlarining moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tuzishning maqsadi va xususiyatlari. Byudjet tashkilotlarining moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisoboti ko'rsatkichlarini shakllantirish ularni tegishli hisob registrlari va hujjatlar bilan o'zaro muvofiqligi. Byudjet tashkilotlarining moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotini tasdiqlash hamda taqdim etish tartibi. Byudjet tashkilotlarining moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning axborot imkoniyatlari.

**8-Mavzu. Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga daromadlar tushumlari to'g'risida hisobotlar.**

Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga daromadlar tushumlari to'g'risida hisobotlar tarkibi va ularni tuzishning maqsadi va



Сканировано с CamScanner

to'g'risidagi hisobotlarni tuzish hamda moliya organlariga taqdim yetilishi tartibi. Markaziy bank tomonidan taqdim yetiladigan davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari daromadlari tushumlari to'g'risidagi hisobotlarni tuzilishi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tushumlari bo'yicha solishtirish dalolatnomalarini tuzish.

**9-Mavzu. Byudjet kassa ijrosiga oid hisobotlar.**
G'aznachilik bo'linmalarida byudjet ijrosiga oid hisobotlarni tuzishning maqsadi, hamda xususiyatlari. Xududiy g'azna tarnzit schyotlarida mablag'lar qoldig'i va daromadlar tushimi hamda xarajatlari haqida kunlik hisobotlarni tuzish tartibi. G'aznachilik bo'limlarida Qoraqalpog'iston Respublikasi va maxaliy byudjetlar daromadlari ijrosi to'g'risida oylik, choraklik va yillik hisobotlarni tuzish hamda taqdim etish tartibi. G'aznachilik bo'limlarida Qoraqalpog'iston Respublikasi va maxaliy byudjetlari xarajatlari ijrosi to'g'risida oylik, choraklik va yillik hisobotlarni tuzish hamda taqdim etish tartibi. G'aznachilik bo'limlarida Respublika byudjeti daromadlari va xarajatlari ijrosi to'g'risida oylik, choraklik va yillik hisobotlarni tuzish hamda taqdim etish tartibi. G'aznachilik bo'limlarida byudjet hisobotlarini tuzishning axborot tizimlari va ulardan foydalanish.

**10-Mavzu. Moliya organlarida davlat byudjeti ijrosiga oid hisobotlar.**
Moliya organlarida Davlat byudjeti ijrosi bo'yicha hisobotlarni tuzishning maqsadi, hamda xususiyatlari. Qoraqalpog'iston Respublikasi va maxalliy byudjetlar ijrosi bo'yicha buxgalteriya balansini tuzilishi. Qoraqalpog'iston Respublikasi va maxaliy byudjetlar daromadlari ijrosi to'g'risida hisobotlarni tuzish hamda taqdim etish tartibi. Qoraqalpog'iston Respublikasi va maxaliy byudjetlari xarajatlari ijrosi to'g'risida hisobotlarni tuzish hamda taqdim etish tartibi. Respublika byudjeti ijrosi bo'yicha buxgalteriya balansini tuzilishi. Respublika byudjeti daromadlari va xarajatlari bo'yicha hisobotlarni tuzish. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti ijrosiga oid hisobotlarni tuzish. Moliya organlarida byudjet tashkilotlariga tegishli moliyaviy hisobotlarni umumlashtirish.

**11-Mavzu. Davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti ijrosiga oid hisobotlar.**
Davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti ijrosiga oid hisobotlarni tuzishning maqsadi, hamda xususiyatlari. Davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlarda byudjetlar ijrosiga oid hisobotlarni tuzishning tashkiliy jihatlari. Davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti daromadlari kassa ijrosiga oid hisobotlarni tuzish hamda taqdim etish tartibi. Davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti xarajatlari kassa ijrosiga oid hisobotlarni tuzish hamda taqdim etish tartibi. Davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti ijrosiga oid hisobotlarni axborot imkoniyatlari va ularni tahlili.

**12-Mavzu. Byudjet ijrosiga oid hisobotlarni umumlashtirish, ko'rib chiqish hamda tasdiqlash tartibi.**
O'zbekiston Respublikasi byudjeti ijrosiga oid hisobotlarni umumlashtirish tartibi va ularning xususiyatlari. Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti ijrosiga oid hisobotlarni tashqi auditi va ularni baholash. Qoraqalpog'iston Respublikasi viloyatlar va Toshkent shahar hamda rayon va shaxarlar mahalliy byudjetlari ijrosiga oid yillik hisobotlarni tasdiqlash tartibi. O'zbekiston Respublikasi



Сканировано с CamScanner

Davlat byudjeti ijrosiga oid hisobotlarni ko'rib chiqish va tasdiqlash tartibi. Davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti ijrosiga oid hisobotlarni tasdiqlash tartibi.

**13-Mavzu. Byudjet hisobotlarining axborot imkoniyatlari va ularni tahlili**
Byudjet tashkilotlari moliyaviy hisobotlari axborot imkoniyatlari va ularni tahlili. G'aznachilik bo'limlari tomonidan tuziladigan byudjet ijrosiga oid hisobotlarni axborot imkoniyatlari va ularni tahlili. Moliya organlari tomonidan tuziladigan Qoraqalpog'iston Respublikasi va maxaliy byudjetlar ijrosiga oid hisobotlarni axborot imkoniyatlari va ularni tahlili. Davlat byudjeti ijrosiga oid hisobotlarning axborot imkoniyatlari va ularni tahlili. Davlat sektori buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari asosida byudjet hisobotlari axborot imkoniyatlarini takomillashtirish.

**III. Amaliy mashg'ulotlap bo'yicha ko'pcatma va tavsiyalar**
**((Laboratoriya ishlari), (Seminar mashg'ulotlari), (Kurs ishi),** o'quv rejada ko'rsatilmagan) **(Mustaqil ta'lim)**
Amaliy mashg'ulotlap uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:
- "Byudjet hisoboti" fanining predmeti va o'rganish usullari
- Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarda moliyaviy hisobotlarni tuzish tartibi
- Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya balansi va uni tuzish tartibi
- Byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetasi ijrosi to'g'risidagi hisoboti va uni tuzish tartibi
- Byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotlar va uni tuzish tartibi
- Byudjet tashkilotlarida nomoliyaviy aktivlar harakati to'g'risidagi hisobot
- Byudjet tashkilotlarining debitorlik va kreditorlik majburiyatlari to'g'risidagi hisoboti
- Byudjet tashkilotlarining moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisoboti
- Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga daromadlar tushumlari to'g'risida hisobotlar
- Byudjet kassa ijrosiga oid hisobotlar
- Moliya organlarida davlat byudjeti ijrosiga oid hisobotlar
- Davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti ijrosiga oid hisobotlar
- Byudjet ijrosiga oid hisobotlarni umumlashtirish, ko'rib chiqish hamda tasdiqlash tartibi
- Byudjet hisobotlarining axborot imkoniyatlari va ularni tahlili

Amaliy mashg'ulot mavzularida fanning ishchi o'quv dasturini ishlab chiqishda qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.
Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem guruhga bir professor o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**
Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:
- "Byudjet hisoboti" fanining predmeti va metodi
- Byudjet tashkilotlari topshiradigan moliyaviy hisobotlar
- Xarajatlar smetasi ijrosi to'g'risidagi hisobotni shakllantirish
- Byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotlarni rasmiylashtirish



Сканировано с CamScanner

| | |
|---|---|
| | - Byudjet tashkilotlarida nomoliyaviy aktivlar harakatini hisobotda shakllantirish<br>- Byudjet tashkilotlarining debitorlik va kreditorlik majburiyatlari to'g'risidagi hisoboti va uni tuzish tartibi<br>- Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni byudjet tashkilotlari tomonidan rasmiylashtirilishi<br>- Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga daromadlar tushumlari to'g'risida hisobotlar.<br>- Byudjet tashkilotlarining kassa ijrosiga oid hisobotlar<br>- Moliya organlarida davlat byudjeti ijrosiga oid hisobotlar<br>- Davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti ijrosiga oid hisobotlar<br>- Byudjet ijrosiga oid hisobotlarni umumlashtirish, ko'rib chiqish hamda tasdiqlash tartibi<br>- Byudjet tashkilotlari hisobotlaridan foydalanuvchilar va ularning axborot imkoniyatlari tahlili.<br>Fanning ishchi o'quv dasturini ishlab chiqishda mustaqil ta'lim va mustaqil ish mavzularida qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.<br>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi. |
| 3 | **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:<br>□ byudjet hisobotlari tarkibi va ularning axborot imkoniyatlari;<br>□ byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning moliyaviy hisobotlarini tuzish, tasdiqlash hamda taqdim etishning uslubiy asoslari;<br>□ moliya organlari hamda g'aznachilik bo'linmalarida byudjet ijrosi bo'yicha hisobotlarni tuzish, taqdim etish hamda tasdiqlashning uslubiy asoslari;<br>□ davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlarda byudjet ijrosi bo'yicha hisobotlarni tuzish, taqdim etish hamda tasdiqlashning uslubiy asoslari;<br>□ byudjet hisobotlarini tuzishning axborot tizimlari haqida ***tasavvurga ega bo'lishi;***<br>□ byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarda moliyaviy hisobotlarni tuzish tartibini;<br>□ davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga daromadlar (tushumlar) to'g'risidagi hisobotni tuzish tartibini;<br>□ davlat byudjeti ijrosi yuzasidan hisobotlarni tuzish tartibini;<br>□ давлат максадли жамғармалари бюджети ижроси бўйича hisobotlarni tuzish tartibini;<br>□ byudjet hisobotlarini tuzishning axborot tizimlarini bilishi va ulardan foydalana olishi;<br>□ byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarda moliyaviy hisobotlarni tuzish;<br>□ moliya organlari hamda g'aznachilik bo'linmalarida byudjet ijrosiga oid hisobotlarni tuzish;<br>□ soliq hamda bojxona organlarida davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga daromadlar (tushumlar) to'g'risidagi hisobotlarni tuzish;<br>□ davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlarda byudjet ijrosi bo'yicha hisobotlarni tuzish;<br>□ byudjet hisobotlarini tuzishning axborot tizimlaridan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi;<br>□ davlat byudjeti ijrosiga oid hisobotlarni; |

Сканировано с CamScanner

| | |
|---|---|
| | ☐ davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari ijrosiga oid hisobotlarni;<br>☐ byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar moliyaviy hisobotlarini shakllantirish ***malakalariga ega bo'lishi kerak.*** |
| 4 | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>☐ ma'ruzalar;<br>☐ interfaol keys-stadilar;<br>☐ seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>☐ guruhlarda ishlash;<br>☐ taqdimotlar namoyishi;<br>☐ individual loyihalar;<br>☐ jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| 5 | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish. |
| 6 | **Asosiy adabiyotlar**<br>1.Mehmonov S. va Ubaydullayev D. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi. Darslik. – T.: "Sano - standart". 2013. 454 b.<br>2. Mehmonov S.U.,.Karimova Z.X,.Tursunov A.S; "Byujet tizimi" Darslik, T.; "Iqtisod-moliya", 2018 yil. 544 bet.<br>3. Tuychiyev A.J., Ostonokulov A.A.,Ibragimov K.SH., Tursunov A.S. Byudjet hisobi. Darslik – T.: "Iqtisod-Moliya" 2018. –428 b.<br>4. Tuychiyev A.J., Ibragimov K.SH., Byudjet hisoboti. O'quv qo'llanma – T.: "Iqtisod-Moliya" 2018. –254 b.<br>5. Ibragimov K.SH., Byudjet hisoboti. Darslik – T.: "Iqtisod-Moliya" 2019. –540 b.<br>6. Tuychiyev A.J., Ostonoqulov A.A.,Ibragimov K.SH., Tursunov A.S. Byudjet tashkilotlarida byudjet hisobi. Darslik – T.: "Iqtisod-Moliya" 2019. –329 b.<br>7. Hamdamov B.K. va Ostonokulov A.A. Byudjet nazorati. O'quv qo'llanma. "IQTISOD MOLIYA". – T.: 2018. 318 b.<br>8. Коренкова С.И. Бюджетный учет и отчетность. Учебное пособие для вузов. — Москва: Издательство Юрайт, 2019. — 195 с.<br><br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>9. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.<br>10.Mirziyoyev SH.M.Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 104 b.<br>11. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 56 b.<br>12. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 48 b.<br>13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 25 yanvar 2020 yil.<br>14. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947- |



Сканировано с CamScanner